



BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ustoz-shogird o‘rtasidagi muloqot malakalari, psixologik ta’sirning dars jarayonidagi o‘rni, o‘zini tuta bilish, mimika va boshqalarning xarakterli jihati xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar:

muloqot, so‘zlovchi, tinglovchi, verbal, paralingvistik, noverbal, ochiq holat, yopiq holat.

Information about the authors

Dedaxanova Muazzam,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Alisher navoiy
nomidagi ToshDO‘TAU

Dedaxonova Mohira
NamDU. Pedagogika mutaxassisi

Kirish. Ma’lumki, shaxslararo o‘zaro munosabat masalasida ustoz-shogird masalasi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Muloqot madaniyati dars jarayonining hayotiy kuch manbaidir. Samarali muloqot tizimi mavjud bo‘lmas ekan, o‘qituvchi hech qachon o‘quv jarayonidan ko‘zlangan maqsadga erisha olmaydi. Ustoz-shogird o‘rtasidagi munosabatda muloqot ishonch asosiga quriladi. Bu muhit ekspert tomonidan unumdorlik asosida yaratiladi. Qabul qiluvchi – o‘quvchi/talaba, eng avvalo, ma’lumot beruvchi – o‘qituvchining foydali bilim, muhim yangilik berishiga ishonishi zarur. Bu ishonchni uyg‘otish uchun pedagogdan, albatta, darsga tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lishi, o‘zini tuta bilishi, rasmiy kiyinish va muomala madaniyatini jiddiy o‘zlashtirgan bo‘lishi talab etiladi.

Asosiy qism: Yangi ma’lumotlarni berishda o‘qituvchining aniq dalillarga tayanishi tinglovchida yaxshi taassurot uyg‘onishiga zamin hozirlaydi. Bu borada muammolarning oldini olish uchun quyidagilarga e’tiborli bo‘lish ko‘zlangan natija beradi:

- mavzuni sodda va tushunarli tarzda tushuntirish, ya’ni qabul qiluvchiga tanish bo‘lgan so‘z va jummalarni afzal ko‘rish, o‘ta ilmiy gapirishga intilmaslik;
- mujmal fikrlardan qochish, mavhum qoidalar, ilmiy terminlarga izoh berish. Agar tinglovchiga notanish birlik mavjud bo‘lsa, birinchi marta ishlatilayotganda ma’nosini aniqlashtirib berish, keyingi safar esa o‘sha tushuncha mohiyatini esga olishni, biror kishi hammaga eslatishini so‘rash...

Dars jarayonidagi rasmiy munosabat auditoriyadan tashqarida norasmiy bo‘lishi, darsda ham fikr bildirishda erkinlik berish, demokratik ruhda bahs-munozaralar tashkil etish qarashlar va shaxsiy reaksiyalarni ifodalashga imkon beradi. Ta’kidlash joizki, muloqot odamlar o‘rtasidagi birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Unda so‘zlovchi va tinglovchi munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda so‘zlovchi o‘qituvchi bo‘lganida, u quyidagi malakalarga e’tiborli bo‘lishi muhim:



- **Masalani yaxshi bilish.** Darsni samarali tashkil etishda pedagogning bilim saviyasi, tayyorgarlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuni mukammal o'rganibgina qolmay, dars metodikasini ishlab chiqish: qaysi metodlar yordamida darsdan ko'zlangan maqsadga erishish qulay bo'lishini puxta o'ylab chiqilganligi, qiyoslash, tasvirlash, ko'rsatish, yakunlash va masalalarni qayta ko'rib chiqishni rejalashtirilgan bo'lishi zarur. Ya'ni masala bo'yicha bilim va ishonchli dalillarga ega bo'lib, diskussiyaga yaxshi tayyorlangan bo'lish lozim.
- **Ajoyib va ta'sirchan ovoz.** O'qituvchi yuqori tempdagi yoqimli ovoz sifatiga e'tiborli bo'lishi, bu borada o'z ustida ishlashi kerak. Ta'sirchan ovoz tinglovchilarni darsga jalb etishda muhim rol o'ynaydi.
- **Talaffuz.** Pedagog so'zlarni to'g'ri urg'u va aksent bilan talaffuz qilishi zarur.
- **Balans.** Umumiy balans va nutqni yetkazish kimgadir ortiq, yana kimgadir past nazar bilan munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaydi. Balans tinglovchiga e'tibor, bosiqlik, aniq munosabat va ishonchni o'z ichiga oladi.
- **Samarali xatti-harakatlar.** Nutq so'zlayotganda o'zini boshqara olish katta samara beradi. Dars jarayonida juda ham ko'p imo-ishoralar qilish, mimika va tana harakatlarida o'zimizni tutib turishimiz kerak. Qolaversa, xatti-harakatlarimiz ziddiyat, g'azab, toliqqanlik, vahima, shoshilish yoki ikkilanishni ko'rsatmasligi kerak.





- **Ijobyiy yondashuv.** Tinglovchi sifatida foydali ma'lumot olish uchun ijobyiy yondashuvga rioya qilish muhimligi tabiiy. Buning uchun pedagog, albatta, o'quvchi/talabalarda istak, qiziqish uyg'ota olishi zarur.
- **E'tibor jamlangan munosabat.** O'quvchi/talabalar idroki, diqqati mavzuda, hal etiladigan muammo, masalada bo'lishi kerak. Buning uchun o'qituvchi faqat o'zi gapiravermay, noana'naviy usullardan unumli foydalangan holda ko'tarilgan masala doirasida tinglovchilarning bilim va malakasi qay darajada ekanini aniqlab olishga, har bir yangi ma'lumotga munosabatini analiz qilishga ham e'tiborli bo'lishi talab etiladi. So'zlovchi niyatini tushunishga va muayyan mavzuni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi.
- **Tizimli tushunib yetish.** Dars jarayonida samarali qatnashish uchun unda ifodalangan qarashlarni tushunib yetish zarur. O'quvchi/talabalar o'z qarashlari, fikrlarini ongli va beg'araz sharhlay olishi kerak. Boshqalar nima deyayotganini eshitish va muvofiq ravishda o'z qarashlarini ijobyiy tomonga o'zgartirishi kerak.
- **Batafsil tahlil.** Qatnashuvchi sifatida o'quvchi/talabalar qanday tinglashni, nimani tinglashni va to'g'ri xulosa chiqarishni bilishi kerak. Olingan ma'lumotlarni qanday umumlashirishni va sharhlashni bilish zarur. Qolaversa, avval olingan bilimlar va yangi dalillarni to'g'ri taqqoslash muhim.
- **Xatti-harakatlar.** Mas'uliyatli tinglovchi sifatida boshqalarning qarash va fikrlarini qabul qilishda samimiy, hayrixoh bo'lish kerak. Sog'lom muhokama yangidan yangi g'oyalar beradi. Tinglovchi o'z qarashlarini qanday yetkazishni, ularning haqiqatga mosligini tekshirishni o'rganishi dolzarb. Boshqalarning qarashlarini hurmat qilishni, kelishmovchilik va tartibsizliklarni hal etishning barcha bosqichlarida o'ylashni va ishlashni o'rgatish pedagog zimmasidagi jiddiy mas'uliyatlardandir.

Noan'anaviy ta'lim jarayonida faollik talabalar zimmasiga tushishi mavzuni mushohada qilgan holda fanni yaxshi o'zlashtirishga zamin yaratadi. Qolaversa, ishtiyoq(motivatsiya)ning yuqori darajada bo'lishi, mavzuni yaxshi eslab qolinishi, muloqotga kirishish, mustaqil, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmasining takomillashishi, o'z-o'zini baholashning o'sishiga yordam beradi [1, B. 107].

Pedagog va o'quvchi/talabalar o'rtasida muloqot ortgan sari umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Bu o'rinda psixologik ta'sirning uch xil turiga e'tiborli bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Verbal ta'sir – bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatiladigan ta'sir. Bunday asosiy vositalar so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham kishi o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.
2. Paralingvistik ta'sir – bu nutqning atrofida uni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillardir. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanganligi, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.
3. Noverbal ta'sirning ma'nosi "nutqsiz"dir. Bunga suhbatdoshlarning holati (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilish, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi [5;6].

Bularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobyiy bo'lishiga gapirgan gaplari (verbal) 7%, paralingvistik omillar 38% va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilgan ekan [4; 6].



Noverbal vositalar tinglovchining ruhiy holati, suhbat mavzusiga munosabatini ham o'zida aks ettiradi. Masalan, mana bu suhbatdoshlarning o'tirgan holatiga e'tibor qarataylik:



Demak, ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan inson tanasining holati uning ruhiy holatidan darak beradi. Agar biror kishi muloqotda mavzuga qiziqsa, suhbatdoshiga e'tibor qaratadi va u tomonga suyanadi, agar unchalik qiziqmasa, aksincha, boshqa tomonlarga tez-tez qaraydi yoki orqaga suyanadi:



Holatlar ochiq va yopiq bo'ladi: Ochiq holatlar ishonch, kelishuv, xayrixohlik, psixologik qulaylik holatlari sifatida qabul qilinadi. Tik turgan holatda bu quyidagilarni o'z ichiga oladi: biror kishining qo'llari kaftlarini yuqoriga qaratib, oyog'ini chalishtirmay o'tiradi.



Yopiq holatlar ishonchsizlik, kelishmovchilik, qarama-qarshilik, tanqid pozalari sifatida qabul qilinadi. Ular odam o'zini qandaydir tarzda yopishga harakat qilganda hosil bo'ladi. Mojaroga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, harakatlar (yoki harakatsizlik) natijasida yuzaga keladi. Kelishmovchilikning paydo bo'lishida konfliktogenlar deb ataladigan omillar asosiy rol o'ynaydi. Ziddiyat(konfliktogen)larning aksariyati uch turdan biriga tegishli bo'lishi mumkin:

- 1) ustunlikka intilish (ustunlikning bevosita namoyon bo'lishi, buyruqlar, tahdid, tanqid, ayblash, masxara qilish, mensimaslik, xushomadgo'ylik, maqtanchoqlik, hukmlarning kategorik ohangi: "ishonchim komil..." kabi);
- 2) tajovuzkorlikning namoyon bo'lishi (yomon kayfiyat, umidsizlik);
- 3) xudbinlikning namoyon bo'lishi.

Yuz ifodalari odamning boshidan kechirayotgan jarayon haqida haqiqiy ma'lumot berishga qodir. Shuningdek, ko'zlar yordamida odamning holati to'g'risida eng aniq signallar uzatiladi, chunki qorachiqlarning kengayishi va torayishi ongli ravishda nazorat qilinmaydi. Doimiy yorug'lik bilan qorachiqlar kayfiyatga qarab kengayishi yoki torayishi mumkin.



Xulosa. Hissiyotlar muloqotda muhim rol o'ynaydi. Agar pedagog so'zlash vaqti sarosimada, tashvishlangan, hayajonlangan, qo'rqqan yoki asabiylashgan holatda bo'lsa, unda u o'z ma'lumotlarini to'g'ri yetkaza olmaydi. Qolaversa, tinglovchilarning hammasi ham har vaqt nimadir o'rganish orzusida o'tirmaydi. Idrokini yashirgan inson bilan muloqot qilish juda qiyin. Ular o'z fikrida shu qadar qat'iylik bilan turadiki, hattoki boshqalarni tinglashdan ham bosh tortadi. Shu sabab pedagogdan doimiy ravishda o'z ustida ishlash, mas'uliyatli bo'lish, ko'pchilikni ichida o'zini tuta bilish, metodikani yaxshi bilish va muomala madaniyatida barchaga o'rnak bo'lish talab etilishi bejiz emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dedakhanova, M. (2023). Oliy ta'limda o'zbek tili fanini noan'anaviy usulda o'rgatishning ahamiyati. *Interpretation and researches*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7748110>
2. Dedakhanova, M. (2023). Teaching the Subject of " Nature and Man" in Foreign Language Groups Based on Innovative Technologies. *Journal of Innovation Creativity and Art*. (<http://jica.innovascience.uz/index.php/jica/article/view/110/104>)
3. Dedakhanova, M. (2023). Oliy Ta'limda "Milliy Qadriyatlar – Millat Iftixori" Mavzusini Interfaol Metodlar Asosida Tashkil Etish. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(3), 24–28. Retrieved from (<http://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/35>)
4. <http://www.fayllar.org/sensor-va-perseptiv-hislatlar.html?page=9>
5. Muloqotning verbal, noverbal, paralingvistik ta'sir vositalari (<http://genderi.org/muloqotda-psixologik-tasir-masalalari-reja-kirish.html?page=4>)
6. Psixologik ta'sir vositalari. Verbal va noverbal ta'sir. Paralingvistik ta'sir vositalari (<https://muhaz.org/1-psixologik-tasir-vositalari-verbal-va-noverbal-tasir-paralin.html>)